

AMIR TEMUR DAVLATIDA MADANIY HAYOT TARAQQIYOTI

Manasheva Sevilya

Asaka tumani 57-umumta'lim maktabning

Tarix fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada asosiy e'tibor Amir Temur davlatida madaniy hayot rivojlantirish sharoitlari, olib borilgan keng qamrovli islohotlar hamda harbiy mahorat, san'at, ilm fan va diplomatiya siyosati tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Ushbu tadqiqotga asosan, mavjud manbalarni davr va makon jihatdan mazmuni va yozilishi uslubiga qarab bo'linib, tahlil va sintez hamda tarixiylik usullaridan foydalanildi. Ushbu tadqiqotning afzalligi shundaki, Amir Temur davrida madaniy hayot taraqqiyoti o'ziga xos xususiyatlarga qiziquvchilar, shuningdek, tadqiq qilayotgan izlanuvchilar uchun keltirgan ma'lumotlar muhim ahamiyatga ega va foydalidir.

Kalit so'zlar: Movarounnahr, Amir Temur, Samarqand, hunarmandchilik, harbiy mahorat, san'at, me'morchilik, ilm fan.

XII-XIII asrlarda Movarounnahrda mo'g'ullar hukumronligi davrida fan, madaniyat sohasi qariyb bir yarim asr davomida tanazzulga yuz tutdi. Ana shunday bir sharoitda tarix sahnasiga chiqqan Amir Temur Movarounnahrni savdo-iqtisodiy, hunarmandchilik, ilmiy-adabiy muhit taraqqiy etgan markazga aylantirdi.

Muqaddas yurtimiz zaminida yashab o'tgan ko'plab ulug' siymolar qatori Amir Temur bobomizning nomi, shon shavkati va merosi ham qayta tiklanib, bu buyuk zot haqidagi asl haqiqat xolis va haqqoniy yoritilmoqda, tadqiqotlar olib borilmoqda, kitoblar yozilmoqda. Zero, Amir Temur shaxsini idrok etish – tarixni idrok etish demakdir. Amir Temurni anglash – o'zligimizni anglash demakdir. Amir Temurni ulug'lash – tarix qa'riga chuqur ildiz otgan tomirlarimizda, madaniyatimizda, qudratimizga asoslanib, buyuk kelajagimizni, ishonchimizni mustahkamlash demakdir.

Bu haqda gapirganda, Amir Temur davlatchilik va diplomatiya, harbiy mahorat, bunyodkorlik salohiyati, ilmu fan, san'at va me'morchilikka oid qarashlari, hayotning ma'no-mazmuni, insonni ulug'laydigan ezgu ishlar haqida bildirgan fikrlari, din-u diyonat va adolatni joyiga qo'yish, saltanat ishlarini kengash va tadbir asosida amalga oshirish, har bir masalada uzoqni ko'zlab, el manfaatini o'ylab ish tutish bilan bog'liq ibratli fazilatlarini alohida ta'kidlash o'rinlidir. Amir Temur o'z ona tilida – turk, ozbek tilidan tashqari fors va arab tillarida bimalol so'zlashgan.

Amir Temur zamonasida Samarqand va Shahrisabzda hamda Hirotda yuzlab fozilu ulamolar, minglab ahlu hunar egalari ijod bilan mashg'ul edilar. O'sha davrda Amir Temur saroyida turli muddatlarda faoliyat ko'rsatgan mashhur qomusiy olimlardan Qozizoda Rumi, Mavlono Ahmad, Saduddin at Taftazoniy, Sayyid Sharif Muhammad al-Jurjoniy, Xoja Muhammad az Zohid al Buxoriy, Xoja Abdumalik Samarqandiy, Mavlono Ubayd, G'iyosiddin Ali, Sharafiddin Ali Yazdi, Nizomiddin Shomiy va boshqalarni ko'rsatish mumkin.

Amir Temur mashhur arab allomasi Ibn Xaldun bilan qurgan suhbatida ham asosan, undan tarix haqida: arab podsholari, ularning qanday davlat boshqarishlari va siyosat yurishlari, paytida Amir Temurning o'zi ushbu bilimlardan yaxshi xabardor bo'lgan holda, Ibn Xaldunni ham hayratda qoldiradi. Ayniqsa, Sohibkiron tomonidan uyushtirilib turiladigan olim-u fazolarning kengashlaridan birida Amir Temurning so'zlagan nutqida e'tibor beraylik: «Fan va dinning mashhur kishilari o'z maslahatlari bilan podshohlarga yordam berib kelganlar. Sizlar esa menga nisbatan bunday qilmayotirsizlar. Mening maqsadim, mamlakatda adolat o'rnatish, tartib va tinchlikni mustahkamlash, fuqaroni turmushini yaxshilash, yurtimizda qurulishni kuchaytirish, davlatimizni rivojlantirishdir. Sizlar bu ishlarni amalga oshirishda menga o'z maslahatlaringiz bilan ko' maklashishingiz kerak.

Mamlakatning ahvoli, devonning suiiste'mol qilinganligi va qilinayotganligi, oddiy odamlarning joylardagi hokimlar tomonidan qisib qo'yilishi kabi hollar hammadan ko'ra sizlarga ayondir». Amir Temurning ma'naviyatining yana bir qirrasida shunda ko'rinadiki, u Amir Temurning «Temur tuzuklari» nomli asarni yaratdi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, bugun mamlakatimizda milliy davlatchilikni shakllantirish, xalqimiz farovonligini oshirish, farzandlarimiz uchun hech kimdan kam bo'lgan hayot barpo etish, yoshlarni jismonan, aqlan va ma'nan yuksaltirish borasidagi barcha islohotlar Amir Temur bobomizning dunyoqarashlari va tutumlariga mohiyatan uyg'undur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Temur tuzuklari. B. Ahmedov tahririda. – T.: G'afur G'ulom, 1996.
2. Temur tuzuklari. Forschadan A. Sog'uniiy va H. Karomatov tarj.; B. Ahmedov tahririda. – T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashr.,1996, 24-bet.
3. Saidqulov T. S. O'rta Osiyoda xalqlari tarixi tarixshunosligidagi lavhalar. – T.: O'qituvchi, 1993, 52-bet.
4. Mo'minov I. Amir Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rni va roli. – Toshkent.: Fan 1993. 23-bet.